


## 2020- yilning yanvar-noyabr oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari

2 621,3  
mlrd. soʻm



103,6 %

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Jizzax viloyatida jami **2 621,3 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **103,6 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.


**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

		<b>Holatiga ko'ra:</b>		<b>O'tgan yilga nisbatan, % da</b>	
		<b>01.12.2019- yil</b>	<b>01.12.2020- yil</b>		
	<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1795</b>	<b>2022</b>	<b>112,6</b>	
	<b>Jizzax sh.</b>	<b>785</b>	<b>860</b>	<b>109,6</b>	
	<b>tumanlar:</b>				
	<b>Arnasoy</b>	<b>53</b>	<b>58</b>	<b>109,4</b>	
	<b>Baxmal</b>	<b>61</b>	<b>74</b>	<b>121,3</b>	
	<b>G'allaorol</b>	<b>103</b>	<b>124</b>	<b>120,4</b>	
	<b>Sh. Rashidov</b>	<b>319</b>	<b>351</b>	<b>110,0</b>	
	<b>Do'stlik</b>	<b>49</b>	<b>63</b>	<b>128,6</b>	
	<b>Zomin</b>	<b>116</b>	<b>123</b>	<b>106,0</b>	
	<b>Zarbdor</b>	<b>77</b>	<b>102</b>	<b>132,5</b>	
	<b>Zafarobod</b>	<b>21</b>	<b>25</b>	<b>119,0</b>	
	<b>Mirzacho'l</b>	<b>41</b>	<b>50</b>	<b>122,0</b>	
	<b>Paxtakor</b>	<b>70</b>	<b>80</b>	<b>114,3</b>	
	<b>Forish</b>	<b>56</b>	<b>64</b>	<b>114,3</b>	
	<b>Yangiobod</b>	<b>44</b>	<b>48</b>	<b>109,1</b>	


Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalarini soni,  
01.12.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh. (42,5 %), Sh. Rashidov (17,3 %) va G'allaorol (6,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **96,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2,2** martaga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,0** % punktga ko'payib, **3,7** % ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **46,5 %** i yoki 2019- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **131,3 %**), Zafarobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,3 %**), va Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **9,2 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **91,7 %** ) ga to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **76,4 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,4 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **102,0 %** ni tashkil etgan holda **2 001,9 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,0 %** ni tashkil etdi yoki **523,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **99,9 %** ni tashkil etdi

### Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **54,7** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 566,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,1 %** va **97,9 %** ni tashkil etdi.

### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar- noyabr

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **79,9 %** i yoki **2 095,1** mld. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

79,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **76,3** mld. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **79,5 %** ni tashkil etdi

79,5 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 001,9** mld. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **76,4 %** ni tashkil etdi.

76,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **523,3** mld. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **20,0 %** ni tashkil etdi.

20,0 %




**2020- yilning yanvar-noyabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur’ati, % da	Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 621,3</b>	<b>103,6</b>	<b>2 095,1</b>
Jizzax sh.	828,5	108,6	662,7
tumanlar:			
Arnasoy	36,9	100,1	27,4
Baxmal	86,1	102,1	69,7
G’allaorol	123,6	101,2	114,3
Sh. Rashidov	703,9	101,9	568,4
Do’stlik	70,3	101,0	50,7
Zomin	148,8	101,4	116,6
Zarbdor	111,7	100,5	89,8
Zafarobod	137,2	101,6	106,1
Mirzacho’l	46,2	101,2	32,7
Paxtakor	141,9	101,5	120,3
Forish	115,7	101,3	85,0
Yangiobod	70,5	100,3	51,4

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **4,0 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,8 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,3 %** punktga ko'payib, **71,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,1 %** punktga kamayib, **24,2 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,3 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,3 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **96,3 % (10,4 %)** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida hammasi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'zgarishsiz qolmoqda.

*ulushi, % da*



2019- yil  
 yanvar-noyabr       2020- yil  
yanvar-noyabr



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-noyabr oylarida**

*mldr. so'm*

	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2545,0</b>	<b>2 091,5</b>	<b>257,9</b>	<b>195,6</b>
Jizzax sh.	822,1	568,0	122,2	131,8
tumanlar:				
Arnasoy	34,4	34,4	-	-
Baxmal	88,2	79,0	9,1	-
G'allaorol	141,0	132,2	8,8	-
Sh. Rashidov	669,9	586,3	48,6	35,0
Do'stlik	61,3	61,3	-	-
Zomin	141,5	101,4	26,1	14,1
Zarbdor	108,4	108,4	-	-
Zafarobod	124,6	124,6	-	-
Mirzacho'l	41,3	14,2	12,4	14,7
Paxtakor	145,5	121,2	24,3	-
Forish	104,9	98,6	6,4	-
Yangiobod	61,9	61,9	-	-


\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

7

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Sh. Rashidov tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 28,0 % i yoki **586,3** mlrd. so'm), shuningdek, Jizzah shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,2 % i yoki **568,0** mlrd. so'm), G'allaorol tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 6,3 % i yoki **132,2** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Jizzax viloyati  
Statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo‘limi**  
**Aloqa telefoni: (72) 221-53-73**